



## “TUNGI HIKOYA” SHE'RINING TALQINIY TAHLILI

**Elnur Niyozmatov**

*O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi  
o'zbek tili va adabiyoti fol'klor instituti mustaqil  
izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada iste'dodli shoir Aziz Saidning “Tungi hikoya” she’ri haqida , undagi ma’juziy timsollar, badiiy san’atlar, poetik mazmun, ijtimoiy muammoning dolzarbligi haqida so’z yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** lirik qahramon, badiiy obraz, tashxis, tanosub, iyhom, tashbeh, antiteza (qarshilantirish), obraz lavha.

Yaxshi she’rni bir marta o’qib hayratlanish, ikkinchi marta o’qib nimanidir tushunish, qayta-qayta o’qigach esa shoirning maqsadini, his-tuyg’ularini his qilish, badiiy tafakkuriga qoyil qolish hamda qalb tug’yonlariga oshno bo’lish mumkin. Shoir Aziz Saidning “Tungi hikoya” she’rini ham qayta-qayta o’qib keyin tahlil qilishga tushdik. Zamonaviy usulda yozilgan ushbu she’rda tabiat va samovat jismlari orqali ramziy-majuziy timsollar yaratilganini ko’ramiz. Ijodkor tafakkur olamining kengligi, ma’juziy obrazlar, hayratomuz ifodalar orqali go’zal lirik asar yaratilganiga guvoh bo’lamiz va yana bir bor so’z qudratiga, uning cheksiz imkoniyatlari mavjudligiga guvoh bo’lish mumkin:

“ Tun qora aroba yulduz tashiydi,  
Ortidan qolmaydi tilamchi shamol.  
Chigirtka jar solar- oling noyob mol,  
Kelinchak daraxtlar oshadi devol”.<sup>38</sup>

Tunda bedor qalb (lirik qahramon qalbi!) hissiyotlarining jilvalanishi, pok tuyg’ularga, ezguliklarga to’la qalbning to’lg’oqlaridan bunyod bo’lgan “yangi

Chaqaloq” - she’rning yaratilishi tasviri mohirona ifodalangan. Bir qarashda qora aroba – qora qalam, u yozayotgan so’zlar- yulduzlarmasmikan deb o’ylab qolish ham mumkin. Birinchi misraning o’zidanoq qandaydir arava yetaklayotgan odam surati ko’z oldimizda gavdalansa, keyingi misralar suratni yanada boyitib, mukammallashtirib boradi go’yo. Ijodkor ikki xil san’atdan unumli foydalanganligi yaqqol ko’zga tashlanadi. So’z orqali chizilgan portret. O’quvchi she’rni o’qigan sari portretidagi oq- qora ranglar uyg’unlashib asar mazmuni ochilib, oydinlashib boradi. Lirik asarda lirik qahramon o’z ruhiy olamidagi kechinmalariga o’quvchini manzara-lavhalar orqali oshno etadi.

Savdogar bu osmon so’rar daraxtdan  
Ko’ylagi yashirgan olmalarini.  
Oy yig’lar yo’rgaklab tunda to’kilgan,

<sup>38</sup>Aziz Said “Tungi hikoya” [https://me/vaqt\\_manzili](https://me/vaqt_manzili)





Daraxtning ismsiz bolalarini.<sup>39</sup>

She'rda tun obrazi mahorat bilan yaratilgan. Arava ham, aravakash ham – tun. Qop-qora aravada habash aravakash yulduz tashiydi. Yulduz tashiyotgan aravakash zimziyolikdan ko'rinmaydi, aravaning harakatlanishidan va uning yulduzlarga to'laligidan aravakash ham qop-qora libosda va o'zi ham qora tanli ekanligini zukko o'quvchi anglab olishi uncha qiyin emas. Yodimizga darhol o'zbek xalq ertaklaridagi tunda qaroqchilarning saroy xazinasidagi oltin-kumush va dur-u javohirlarni o'marishi epizodi tushadi va tun ijodkorning o'y-xayollarini o'g'irlyotgan qaroqchiga qiyoslanyapti deb o'ylaymiz.

Ikkinchi misrada **ortidan qolmaydi tilamchi shamol** misrasida yulduzlardan berishini tilanayotgan shamol obrazi kiritilgan. Aravakashdan dur so'rayotgan tilamchi shamol go'yo qaroqchilarning o'g'riligiga guvoh shaxs unga ham yulduzlardan (dur-javohirlardan) berishmasa, ularni sotishini aytmochiday.

Tun obrazini ko'plab ijodkorlar o'z asarlarida turlicha talqin qilishgan. Bu she'rda tunning o'zgacha tarzda shaxslantirilganligi esa o'ziga xos joziba kashf etgan. Tilamchi shamol – orzu- istaklar timsoli. Ular doim so'z tashiyotgan ilhom parilarining ortidan chopishi, chigirtkaning jar solishi, kelinchak daraxtlarning devor oshib qarashi orqali she'rda sirli ohang, betakror tasvir va mukammal ramziy-majoziy obrazlar galeriyasi yaratilgan desak o'rinli bo'ladi. Bu o'quvchiga badiiy-estetik zavq berishi va undagi she'riyatga, adabiyotga bo'lgan mehr-muhabbatini, qiziqishini kuchaytirishi aniq.

Shu o'rinda yana hazrat Navoiydan iqtibos keltirishni lozim topdik:

“Tiyra firoq tunlari sharhini ayt demakim,

Ming kecha deb tugonmagay bir kechaning fasonasi.

Navoiyning so'zlariga ishonmaslik – muhabbatga ishonmaslik, dardsizlik bilan tengdir. Zero, “bir kechaning fasonasi” uchun sharq she'riyatining manzur va matlub usullaridan ifrotning parvozi ham ojiz qolsa kerak, aks holda, daho shoirning “ming kecha – bir kecha” kabi oddiyligi bilan purma'no nisbatlash usuli (tazod san'ati) orqali shunchalik nafis, haqqoniy obraz-lavha yaratilarmidi!.. “<sup>40</sup>

Navoiyning “bir kechaning fasonasi” iborasi go'yo biz tahlil qilayotgan she'r haqida ham aytilganday, go'yo lirik qahramonning har bir bedor tuni – har bir kechasi haqida aytilganday. (Hazratning sal kam olti yuz yil oldin yozgan baytlari hali hamon o'z avlodlari ijodiy faoliyatlariga o'zgacha ruh, yangicha mazmun kashf etganday ohorini yo'qotmagan)

lirik asardagi asosiy timsollardan daraxt obraziga to'xtalib o'tsak. Daraxt obrazini o'zbek she'riyatida bir qator ijodkorlar ijodida ko'rishimiz mumkin. Usmon Azimning “Ikki daraxt”, Omon Matchonning “Yonayotgan daraxt”, Ikrom Otamurodning “Yobondagi yolg'iz daraxt”, shuningdek, Matnazar Abdulhakim, Xurshid Davron, Xosiyat Rustamova, Bahrom Ro'zimhammad kabi shoirlar she'riyatida daraxtning poetik obrazlarini uchratamiz:

<sup>39</sup> Aziz Said “Tungi hikoya” [https:// me/ vaqt\\_manzili](https://me/vaqt_manzili)

<sup>40</sup> Borirxon Akrom “Fasohat mulkingning sohibqironi” T- “O'zbekiston” 1991. 79-80-betlar.





do'stim ham daraxt  
u menga suyanmoqchi,  
daraxt daraxtga suyanarmi axir?  
(Bahrom Ro'zimuhammad)<sup>41</sup>

Shoir daraxt va insonning o'xshash jihatlarini topa olganki, uni o'zi va do'stiga qiyoslab poetik obraz yaratgan. Hayotda unga suyana oladigan do'stlarning borligi o'zi bir baxt ekanligi ta'kidlangan.

Shoira Xosiyat Rustamovaning ijodidan keltirilgan quyidagi bandda ham o'ziga xoslik, yangicha talqin ko'zga tashlanadi:

“ Tun joylashar borliqqa,  
Tunuka tom taraqlar.  
O'ychan boqar ariqqa –  
Chol-u kampir daraxtlar.”<sup>42</sup>

Ariq bo'yidagi katta daraxtlarning (tanasi va ayrim shoxlarining quriyotgani, bujmaygan po'stloqlari sabab!) keksaygan insonlar – chol-kampirqa o'xshatilishida qandaydir yangilik, topilma topa olgan. Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, daraxt timsoli aksariyat ijodkorlar she'riyatida turli toifa hamda turli yoshdagi, jinsdagi insonlarga nisbatlanadi. Xuddi shuningdek, biz tahlil qilayotgan “Tungi hikoya” she'rinda daraxtlar ilhom parilariga va kelinchakka qiyoslangan. Demak bu daraxtlar yosh, qachon daraxt kelinchakka qiyoslanadi yana faqat devordan oshgan qismi ko'ringan bo'lsa, albatta, ular gullagan daraxtlar. Bahorgi tun tasviri. So'zlar o'rinli va to'g'ri tanlangan.

She'rni o'qir ekanmiz, unda bahor kunlaridan biri tasvirlanganini, oy yog'dusida bir habashsiymo kishining qora aravada yulduz tashiyotganini, u o'tayotgan yo'l chekkasidagi devorlar ustidan gullagan daraxtlarni (shamolni daraxtlar shoxlari egilganligidan bilib olamiz) ko'ramiz. Ammo she'riyat nuqtayi nazaridan kelib chiqib tahlil qilsak, she'rning poetik mazmuniga har qanday o'quvchi tushunib yeta olmaydi. Lirik qahramon ijod jarayonini, tundagi iztiroblar-u his-tuyg'ularini, uning qalb tug'yonlarini, iztiroblarini his eta olmaydi. Hammaga ma'lumki, ilhom parilari tunda ijodkorlarni ijod qilishga undaydi, ular bor iste'dodlarini ishga solib ijod qilishadi va ana shu jarayon yangicha uslubda o'ziga xos tarzda poetik mazmun kasb etgan. Ilhomparilari tug'ib tashlab ketgan chaqaloq bu oq daftarga yozilgan yangi she'r. Oy yorug'lik oydinlik timsoli, u quvonch ko'z yoshlari ila ismsiz bolalarni (she'rni) yo'rgaklaydi. Lirik qahramonga tuhfa etadi.

Mumtoz sh'riyatimizda ham, zamonaviy she'riyatimizda ham Oy obrazi juda ko'p ishlatiladigan timsol. Ishqiy g'azallarda Oy - go'zal yor, go'zallik, ezgulik ,yorug'lik kabi bir qator ramzlarga ega, hattoki Bobur “G'urbatda ul oy ishqii..” g'azalida Vatanga nisbat bergan. XI asrda yashab ijod etgan Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” dostonida Oyto'ldi – davlat (boyluk) timsolini quyidagicha ta'riflagan:

<sup>41</sup>B. Ro'zimuhammad .kunduz sarxatlari Toshkent, “Mehnat”,1999, 11-bet

<sup>42</sup> X. Rutamova , Devor. T-2006, 88-bet.

